

BOLALARGA INGLIZ TILINI O'QITISHNING YOSH CHEGARASI

Umirqulova Zarnigor Nurmurod qizi

[*zarnigorumirqulova@gmail.com*](mailto:zarnigorumirqulova@gmail.com)

+998-93-494-10-30

SamDCHTI Ingliz tili II fakulteti

2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola chet tilini xususan ingliz tilini bolalikdan o'qitishning turli xil metodlari hamda bu jarayonda turli o'yinlar, rasmlar, qo'shiq va multfilmlardan foydalanish orqali chet tili ko'nikmalarini oson o'zlashtirish yuzasidan fikrlar yoritiladi.*

KALIT SO'ZLAR: *chet tili, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, yangi metodlar, interfaol usullar.*

Dunyo glaballashuv jarayoni insonlarda o'z ona tilisidan tashqari yana qo'shimcha tillarni o'rganishni ta'lab qilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar til o'rganish jarayonini imkon qadar maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshida boshlash samaraliroq bo'lishini ko'rsatadi. Bizning yurtimizda chet tilini o'rgatishga bo'lgan masalalarga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarning til o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun davlatimiz tomonidan turli xil dasturlar ishlab chiqarilmoqda. Oxirgi uch yilda bu dasturlar maktabgacha ta'limda o'z rivojini topdi. Hozirgi kunda ham maktabgacha ta'lim muassalarida ingliz tilini o'rgatish bo'yicha keng ko'lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rgatish va o'qitish ko'nikmasini oshirish professional ta'limning ajralmas qismlaridan bo'lib kelmoqda. Yoshlarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqini oshirish biz o'qituvchilar mas'uliyatidir. Ingliz tilini o'rganishda o'rganuvchining salohiyati va darajasi, yoshidan kelib chiqqan holda bosqichma bosqich o'rgatish yaxshi natija beradi. Psixologlarning fikricha bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va ozon o'rganadilar.

Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik ularda taqlid qilish

xususiyati kuchli ekanligi hamda kattalarga nisbatan ularning vaqti ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki 5-6 yoshli bolalar ma'lumotlarni yod olib yoki ma'nosi tushunib emas, balki mehanik tarzda yod oladi. Shuning uchun maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshdagi bolalarga ingliz tili gramstikasidan tushuncha berishdan emas balki turli xil o'yinlar bilan o'rgatish yaxshi samara beradi. Aks holda bola chet tilini o'rganishning birinchi qadamlaridayoq qiziqishini so'ndirib qo'yishimiz mumkin. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va maroqli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanishimiz mumkin.

Qo'shiq va sherlar orqali tushintirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, manoga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rganish. Bolalar so'zlarni qo'shiqlar orqali eshitganda ularga talaffuz qilish osonlashadi va to'g'ri talaffuz qilishni o'rganishadi. Bolalar til o'rganish davomida mutfilimlardagi gaplarni tushunmasa ham mutfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishadi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rgatish uchun samarali yo'l hisoblanadi.

Bilamizki, bolalar qiziquvchan. Ular bir xillikdan tezda zerikishadi. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o'tmaslik lozim balki turli xil interfaol usullardan foydalanib yangi dars o'tish lozim. Aslini olganda metodni o'zgartirib dars o'tish bolalarning intilishlari oshadi.

Hozirgi kunda ko'plab o'qituvchilar dars jarayonida interfaol usullardan foydalanmoqda. Bu metod o'qituvchi va o'quvchilarning faol munosabatidir. Ushbu metod orqali o'quvchining mustaqil va teran fikrlash qobiliyatini rivojlantirib mustaqil qaror qabul qilish, hamda tezda qaror chiqarishga yordam beradi. Bu usulni tarbiya yoshdagi bolalarda qo'llasak ularga sezilarli yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish davomida turli xil qiziqarli o'yinlar va yangi metodlar orqali ularning bilim va til ko'nikmalarini yaxshilash juda ham muhim ahamiyatga ega. Axir bejizga aytishmagan "Yoshlikda olingan bilim toshga oyilgan naqish" kabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru>
2. <https://e-library.namdu.uz>
3. Zubaydova.N.N. The teaching of English for specific purposes.2019.